



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№ 11



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 574 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| YASHIL TRANSPORT SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISH VA TARMOQLARARO INTEGRATSIYADAGI O'RNI..... | 21 |
| Rahmonov Rasul Ne'matovich | |
| BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH | 34 |
| Safarov Sanjar Ravshan o'g'li | |
| O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI..... | 38 |
| Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi | |
| HUDUDIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII | 43 |
| Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna | |
| DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI..... | 50 |
| A.A. Ismailov | |
| DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIVAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI | 56 |
| Mansurov Mansur Alisherovich | |
| ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI..... | 61 |
| Aliqulov Aziz Haydarjonovich | |
| XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI..... | 66 |
| Yormamatov Qodirjon Juraqulovich | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI..... | 71 |
| Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li | |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI..... | 78 |
| Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich | |
| YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJRIBASI..... | 84 |
| Aripov Abdulaziz Sakijonovich | |
| YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH..... | 89 |
| Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva | |
| ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI | 93 |
| To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li | |
| MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI | 98 |
| Yusubov In'omjon Ikram o'g'li | |
| SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI..... | 103 |
| Xodjimatov Xamidullo Mamirjonovich | |
| OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH | 108 |
| Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi | |
| FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH | 113 |
| Yaqubov Timurbek G'anibekovich | |
| SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI | 123 |
| Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna | |



| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI | 129 |
| Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna | |
| CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH | 133 |
| Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li | |
| MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 144 |
| Arzikulov Otabek Ali o'g'li | |
| TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHIYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI | 152 |
| Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi | |
| MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI | 158 |
| Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li | |
| KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI | 163 |
| Aminova Shaxnoza Aziz qizi | |
| JAHON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI | 168 |
| Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li | |
| ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА | 174 |
| Хошимова Камилла Навфал қизи | |
| DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATSION TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI | 184 |
| Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich | |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHLATLAR | 189 |
| Turayeva Adiba Ikramovna | |
| ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI | 193 |
| Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi | |
| MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI | 199 |
| Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich | |
| MINTAQANING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI | 204 |
| Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi | |
| SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH | 210 |
| Jobborov Anvar Egamberdiyevich | |
| ISLOMIY MOLIVALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI | 217 |
| Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li | |
| JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI | 222 |
| Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich | |
| ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN | 225 |
| Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna | |
| BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH | 229 |
| Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi | |
| PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR | 233 |
| Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li | |
| WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS | 238 |
| Abdullaev Erkinjon Azamovich | |
| YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY JIHLATLARI | 245 |
| Xalikov S. X. | |



| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH | 245 |
| <i>Xudayberganov Jasur Baxodirovich</i> | |
| WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS | 251 |
| <i>Abdullaev Erkinjon Azamovich</i> | |
| NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 257 |
| <i>Allakuliyev Akmal Baltayevich</i> | |
| SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH | 261 |
| <i>Jobborov Anvar Egamberdiyevich</i> | |
| TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH..... | 268 |
| <i>Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna</i> | |
| BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH..... | 272 |
| <i>Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi</i> | |
| ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI | 276 |
| <i>Tulyaganova Aziza</i> | |
| ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI..... | 281 |
| <i>Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li</i> | |
| TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI..... | 286 |
| <i>Xamidov Otabek Bakidjanovich</i> | |
| KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI | 290 |
| <i>Arzikulov Otabek Ali o'g'li</i> | |
| ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ | 298 |
| <i>Максудова Шахиста</i> | |
| DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI | 304 |
| <i>Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li</i> | |
| O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI..... | 307 |
| <i>Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li</i> | |
| ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN | 311 |
| <i>Abdukhalkova Komila Abdukhalkovna</i> | |
| МОБИЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ..... | 315 |
| <i>Хурамова Фарангиз Учкун кизи</i> | |
| ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВ И АКЦИЗНАЯ РЕФОРМА УЗБЕКИСТАНА В WTO | 319 |
| <i>Дамир Рустамович Абдулов</i> | |
| BANK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SHAROITIDA LIKVIDLILIK RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI..... | 324 |
| <i>Alimov Baxtiyor Murodovich</i> | |
| BANK AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI..... | 335 |
| <i>Narziyev Xayotjon Azamatovich</i> | |
| O'ZBEKISTON SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI..... | 343 |
| <i>Abdimuminova Saodat Taxirjonovna</i> | |
| TO'QIMACHILIK SANOAT MAXSULOTLARI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI VA BRENDDA LIDERLIK TUSHINCHALARI | 352 |
| <i>Abdulazizova Xushnoza Nayabovna</i> | |



| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ АДАПТАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА..... | 357 |
| Д. Мейлиева | |
| О‘ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI | 361 |
| Parpiyev Jaxongir Iloxomjonovich | |
| ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ (BIG DATA) В УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЯХ..... | 366 |
| Шарипов Бахтиёр Михлибаевич | |
| О‘ZBEKISTONDA SUVGA BO‘LGAN TALABNI VAQTLI QATORLAR ORQALI TAHLIL QILISH | 375 |
| Sarvar Mamasoliyev | |
| BOSHQARUV VA NAZORAT MAQSADLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH | 383 |
| Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o‘g‘li | |
| MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINI TA‘MINLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI..... | 389 |
| Salomat NOROVA | |
| О‘ZBEKISTON TURIZM BREND BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI..... | 394 |
| Zufarov Akmal Gulamiddinovich | |
| INNOVATSION IQTISODIYOTDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYASI..... | 404 |
| Qodirov Baxodirjon Tursunovich | |
| О‘ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALINING O‘RNI VA AHAMIYATI | 408 |
| Dehqonov G‘ayratjon Raximovich | |
| OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION HAMDA TIJORATLASHTIRISH MASALALARI | 414 |
| Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g‘li | |
| OLIY IQTISODIY TA‘LIM ORQALI EKO-INNOVATSIYALAR VA “YASHIL” INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISH MEKANIZMLARI: SIYOSIY VA INSTITUTSIONAL DOIRALAR | 418 |
| Xasanova Zarina Maxamadaliyeva | |
| XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH — ZAMON TALABI..... | 427 |
| Narzullaev Oybek Narzullaevich | |
| BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA JURNAL-ORDER SHAKLINING AHAMIYATI..... | 433 |
| Axmedjanov Abdufato | |
| KENDALL VA SPEARMAN TARTIBIY KORRELYATSIYA KOEFFITSIYENTLARI ASOSIDA YASHIL IQTISODIYOT INDIKATORLARINING STATISTIK O‘ZARO TA‘SIRINI MODELLASHTIRISH | 437 |
| Muradov Rustamjon Sobitxonovich | |
| ИНТЕНСИВНЫЕ И ЭКСТЕНСИВНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ В РЕГУЛИРОВАНИИ СПРОСА..... | 442 |
| Аминджанова Румейса Батыровна, Камилова Наргиза Абдукахоровна | |
| ИНКЛЮЗИВНЫЙ ПОДХОД В ТУРИЗМЕ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И УЗБЕКСКАЯ ПРАКТИКА | 445 |
| Азимова Шахло Таировна | |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XAQARO STANDARTLARIGA O‘TISHNING HOLATI VA TAHLILI | 450 |
| Bayjanov Sarsengaliy Xalmuratovich | |
| UZUM EKSPORT QILUVCHI KOMPANIYALARDA YASHIL O‘TISH JARAYONINI QO‘LLAB-QUVVATLASH UCHUN EKO-MARKETING VA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI INTEGRATSIYALASH..... | 454 |
| Usmonova Diyora Mahmud qizi | |
| UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINING TAHLILI: OPTIMALLASHTIRISH VA SAMARADORLIKNING YANGICHA USULLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA) | 461 |
| Umarov Avzaljon Yodgorali o‘g‘li | |
| INVESTITSIYALARNING KIRIB KELISHIGA TO‘SQINLIK QILUVCHI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI..... | 467 |
| Alimova Dilafro‘z Tohir qizi | |



| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOT SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTORLAR UCHUN AXBOROT OCHIQLIGINI TA'MINLASH | 470 |
| Turdikulova Gulshad Nurmatovna | |
| ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI OSHIRISHDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI..... | 477 |
| Uztemirov Alisher Aktam o'g'li | |
| INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOQLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN BANDLIK TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH | 482 |
| Tursunov Bekmuxammad Omonovich | |
| XORIY TAJRIBALARIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH TARTIBI METODOLOGIYASINING MAVJUD METODLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI..... | 489 |
| Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna | |
| IQTISODIY XAVFSIZLIKNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI..... | 496 |
| Ramatillaev M.R. | |
| TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI SUG'URTALASH VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 502 |
| Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li | |
| TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBATNI BAHOLASH VA KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI..... | 506 |
| Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich | |
| XALQARO REYTING TASHKILOTLARINING OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA TA'SIRI VA MAVJUD PLATFORMALAR..... | 515 |
| O'rozboyev Xayrulla Murodboy o'g'li | |
| TALABALAR MOTIVATSIYASINING MEKANIZMLARI: LOYIHA ASOSIDAGI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDA..... | 523 |
| Kasimova (Mulladjanova) Nasiba Azimdjanovna | |
| ISH KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA NORASMIY BANDLIKNI SOYADAN CHIQRISH BO'YICHA TAKLIFLAR ISHLAB CHIQISH | 531 |
| Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Maxkamova Shaxlo Yulchiyevna, Absamatov Baxrom Danakulovich | |
| KASBIY TA'LIM MAZMUNIDA TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI RAG'BATLANTIRISH ORQALI O'RTA BO'G'IN KADRLAR TAYYORLASHNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI | 538 |
| Tojiyev Sirojiddin Sayriddinovich | |
| O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISH TIZIMINING TURLARI VA SHAKLLARI..... | 542 |
| Muminova Mavjuda Sharifovna | |
| SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI STRATEGIK BOSHQARISH SAMARADORLIGI MASALALARI..... | 547 |
| Kadirhodjayeva Nilufar Rahmatullayevna | |
| MHXSGA MUVOFIQ ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI..... | 552 |
| Aliyev Sherzod Abdixomidovich | |
| ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ..... | 558 |
| Аллаева Г.Ж. | |
| YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH YO'NALISHLARI | 564 |
| Irisqulova Munisa Akmal qizi | |
| TASHABBUSLI BUDJET JARAYONLARI DOIRASIDA 2024-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR TAHLILI | 569 |
| Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li | |



TASHABBUSLI BUDJET JARAYONLARI DOIRASIDA 2024-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR TAHLILI



Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqotimiz davomida o'rganilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan "Ochiq budget" axborot portali orqali joriy yilda o'tkazilayotgan "Tashabbusli budget" jarayonlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar, ovoz berish jarayonlari, va g'olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish holatlari yuzasidan huquqiy va tahliliy ma'lumotlar hamda tashabbusli budjetlashtirish tizimida galdagi yangi amalga ashirilishi kutilayotgan ishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tashabbusli budget, Ochiq budget, axborot portali, davlat budjeti, jamoatchilik fikri.

Abstract. This article presents legal and analytical information on the work carried out within the framework of the «Initiative Budget» process conducted this year through the «Open Budget» information portal organized by the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, proposals submitted by citizens, voting processes and cases of financing proposals recognized as winners, as well as on the work done within the framework of the «Open Budget» project.

Key words: initiative budget, Open budget, Citizens' budget, information portal, state budget, Citizens' opinion.

Аннотация. В данной статье представлена правовая и аналитическая информация о работе, проведенной в рамках процессов «Инициативный бюджет», проведенных в текущем году через информационный портал «Открытый бюджет», организованный Министерством финансов Республики Узбекистан, предложениях, внесенных гражданами, процессах голосования и случаях финансирования предложений, признанных победителями, а также о работе, проделанной в рамках проекта «Открытый бюджет».

Ключевые слова: Инициативный бюджет, Открытый бюджет, информационный портал, государственный бюджет, общественный мнения.

KIRISH

Bugungi kunda respublikamizda davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish doirasida budget jarayonida fuqarolarning ishtirokiga asoslangan budjetlashtirishning zamonaviy usullarini keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi o'zgarishlar va islohotlar sharoitida tashabbusli budjetlashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini har tomonlama o'rganish va tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Tashabbusli budjetlashtirish — bu fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflarga asosan, ularning tashabbuslarini inobatga olgan holda budget mablag'larining bir qismini taqsimlash va ushbu mablag'larni fuqarolar ilgari surgan ijtimoiy ahamiyatga ega takliflarni moliyalashtirishga yo'naltirish amaliyotidir. Mazkur budget mexanizmini G'arbiy va Sharqiy Yevropaning 20 dan ortiq davlati, shuningdek Lotin Amerikasi mamlakatlari, AQSh, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya va boshqa ko'plab davlatlar muvaffaqiyatli qo'llab kelmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishtirokchi budjetlashtirish g'oyasi so'nggi o'n yilliklarda jamoatchilik boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiruvchi samarali mexanizm sifatida keng o'rganilgan. Archon Fung o'z tadqiqotlarida ishtirokchi jarayonlarni "demokratik innovatsiya" sifatida baholab, ular orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchning oshishini asoslab beradi. U, xususan, "Empowered Participation" asarida fuqarolarning qaror qabul qilishdagi faolligi ijtimoiy adolat va resurslarning samarali taqsimlanishiga olib kelishini ta'kidlaydi.

Mark Warren ishtirokchi budjetlashtirishni "muloqotga asoslangan boshqaruv" deb ataydi va uning siyosiy legitimlikni mustahkamlashdagi rolini tahlil qiladi. U nazariy jihatdan fuqarolik ishtirokini shunchaki maslahat berish emas, balki hamkorlikda qaror qabul qilish bosqichiga ko'taruvchi mexanizm sifatida talqin qiladi.

Boshqa tomondan, Giovanni Allegretti tomonidan olib borilgan Yevropa davlatlari misolidagi tadqiqotlar ishtirokchi budjetning ijtimoiy innovatsion xarakterini yoritadi. U Portugaliya, Italiya va Germaniyada amalga oshirilgan loyihalar tahliliga tayanib, jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan siyosiy irodaga va aholining ijtimoiy faolligiga bog'liqligini isbotlaydi.

Jülide Yildirim va Metin Ercan tomonidan Turkiyada o'tkazilgan tadqiqotlarda ishtirokchi budjetlashtirish mahalliy boshqaruvda moliyaviy shaffoflikni oshirishga xizmat qilgani aniqlangan. Ularning fikricha, bu tizim mahalliy loyihalarning samaradorligini baholashda va korrupsiyani kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Francesco Panella va Marco Allegretti Italiya misolida ishtirokchi budjet jarayonining institutsional rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, ularni mahalliy boshqaruvning barqarorligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy o'zgarish mexanizmi sifatida baholaydi. Shuningdek, Paolo Spada tomonidan olib borilgan xalqaro tadqiqotlar ishtirokchi budjetlashtirishda raqamli platformalarning joriy etilishi fuqarolarning ishtirok doirasini kengaytirganini va qarorlar qabul qilish tezligini oshirganini ko'rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar orasida OECD bu yo'nalishda muhim metodologik yondashuvlarni ishlab chiqqan. "Innovative Citizen Participation and New Democratic Institutions" hisobotida ishtirokchi budjetlashtirishning yangi formatlari, xususan, onlayn ovoz berish tizimlari, ochiq budjet portalari va monitoring platformalari keltiriladi. Transparency International ham ishtirokchi budjetni korrupsiyaga qarshi kurash vositasi sifatida tavsiya etib, uni jamoatchilik nazorati orqali davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish mexanizmi sifatida ta'riflaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ishtirokchi budjetlashtirish jarayonlarini o'rganishda tizimli yondashuv asosida ishlab chiqildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlaridan, shuningdek, fuqarolik jamiyati vakillari bilan o'tkazilgan so'rovlar va intervylardan olindi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil, qiyosiy tahlil va kontent tahlil usullari orqali umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yurtimizda so'nggi yillarda aholi turmush darajasini yaxshilash, fuqarolarni qiynab kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Joylarda infratuzilmani rivojlantirish, tizimli muammoga aylangan yo'l ta'mirlash, ichimlik suvi ta'minoti, tabiiy gaz yetkazib berish hamda ta'lim muassasalari binolarini ta'mirlash kabi masalalarni hal etish pirovard maqsadlardan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonlarda fuqarolarni jalb etish hamda budjet mablag'larining sarflanishida aholining o'z fuqarolik pozitsiyasidan foydalangan holda ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ishtiroki uchun mexanizmlar shakllantirilganini kuzatish mumkin. Fuqarolarning budjet jarayonida ishtiroki shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda korrupsiya holatlarining oldini olishga xizmat qilmoqda.

2019-yildan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi ko'magida jamoatchilik ixtiyoriga "Ochiq budjet" axborot portali taqdim etildi va "Tashabbusli budjet" jarayonlari yo'lga qo'yildi. 2021-yildan boshlab esa ushbu jarayonlar takomillashtirilib, yangilangan tartibda amalga oshirilib kelinmoqda.

"Tashabbusli budjet" jarayonlaridan kutilayotgan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat: aholining yillar davomida an'anaviy budjet tizimida qamrab olinmagan muammolarini hal etish; aholining budjet savodxonligini oshirish hamda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash; fuqarolik jamiyatining hamjihatlikda shakllanishiga erishish; e'tibordan chetda qolayotgan ijtimoiy masalalarni fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda hal etish; mahalliy hokimiyat va fuqarolar tomonidan muhim ahamiyatga ega sohalar bo'yicha birgalikda qarorlar qabul qilish; fuqarolarni hududda amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishlariga mos ravishda sarflanayotgan mablag'lar haqida xabardor qilish.



Mamlakatimizda 2019-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "Tashabbusli budget" jarayonlari ushbu sohaning insonlar hayotidagi o'rni qanchalik dolzarb ekanini va mazkur mexanizm jamiyatimizdagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishda samarali vosita — "ijtimoiy dastak" sifatida xizmat qilayotganini yana bir bor tasdiqladi.

Joriy yilda an'anaga muvofiq tarzda Tashabbusli budget jarayonlari ikki mavsum doirasida — yanvar-fevral hamda iyul-avgust oylarida o'tkazildi. Tashabbusli budget jarayonini yanada takomillashtirish, ovoz berish bosqichini optimallashtirish hamda majburiy ovoz berish holatlarini kamaytirish maqsadida bir qator yangiliklar va qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Jumladan, birinchi mavsumdan boshlab "Bir fuqaro – bir ovoz" tamoyili joriy etildi va "Mening yo'lim" loyihagini Tashabbusli budget jarayonining birinchi mavsumi bilan birlashtirib o'tkazish belgilandi. Ikkinchi mavsumdan boshlab esa majburiy ovoz berishga jalb etish hamda ovozlarni "sotib olish" holatlarini kamaytirish maqsadida ovoz berish bosqichi 10 kunga qisqartirildi.

Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari vakolatlarini kengaytirish maqsadida ularga tuman (shahar) budgeti qo'shimcha mablag'lari hisobidan qo'shimcha g'oliblarni e'lon qilish hamda majburiy ovoz to'plangan loyihalarni bekor qilish vakolati berildi. Shu bilan birga, joriy yilda Tashabbusli budget jarayonlari uchun ajratilgan mablag'lar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,2 trln so'mga yoki 26 foizga oshib, umumiy ajratilgan mablag'lar miqdori 5,7 trln so'mni tashkil etdi.

Ikki mavsum davomida "Ochiq budget" portaliga fuqarolar tomonidan jami 63 mingdan ortiq loyiha kelib tushdi. Shundan hududiy ishchi komissiyalar tomonidan 52 mingdan ortiq (83 foiz) loyiha ovoz berish bosqichiga o'tkazildi. Rad etilgan loyihalarning aksariyati texnik jihatdan amalga oshirish imkoni bo'lmagani yoki qiymati 1,3 mlrd so'mdan ortiq bo'lgani sababli rad etilgan.

Ovozga qo'yilgan loyihalarning 20 mingtasi (39 foiz) ichki yo'llarni ta'mirlashga, 7,3 mingtasi (14 foiz) ko'cha chiroqlarini o'rnatishga, 6,8 mingtasi (13 foiz) esa maktablarni ta'mirlash va jihozlashga to'g'ri kelgan (1-jadval).

1-jadval. Tashabbusli budget doirasida 2024-yilda ovoz berish bosqichiga o'tkazilgan loyihalar yuzasidan sohalar kesimida ma'lumot

| T/r | Hudud nomi | Jami loyihalar | shundan | | | | | | |
|--------|-------------------------------|----------------|---------------|--------------------|-------------------|--------------------|---------------------|-------------------------------|---------------|
| | | | Ichki yo'llar | Umumta'lim maktabi | Ko'cha chiroqlari | Maktabgacha ta'lim | Tibbiyot tashkiloti | Ichimlik suvi va oqava tizimi | Boshqalar |
| Jami | | 52 255 | 20 396 | 6 823 | 7 311 | 2 351 | 1 780 | 2 057 | 11 537 |
| foizda | | 100% | 39% | 13% | 14% | 4% | 3% | 4% | 22% |
| 1 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 3 004 | 975 | 496 | 329 | 112 | 113 | 76 | 903 |
| 2 | Andijon viloyati | 3 610 | 1 762 | 495 | 527 | 74 | 151 | 132 | 469 |
| 3 | Buxoro viloyati | 3 642 | 1 507 | 449 | 476 | 130 | 135 | 45 | 900 |
| 4 | Jizzax viloyati | 2 510 | 913 | 458 | 245 | 90 | 50 | 67 | 687 |
| 5 | Qashqadaryo viloyati | 3 870 | 2 098 | 321 | 555 | 25 | 79 | 172 | 620 |
| 6 | Navoiy viloyati | 3 352 | 850 | 468 | 491 | 211 | 142 | 92 | 1 098 |
| 7 | Namangan viloyati | 4 089 | 2 015 | 393 | 618 | 95 | 119 | 172 | 677 |
| 8 | Samarqand viloyati | 3 878 | 1 663 | 626 | 394 | 180 | 176 | 154 | 685 |
| 9 | Surxondaryo viloyati | 4 567 | 1 733 | 732 | 771 | 195 | 176 | 311 | 649 |
| 10 | Sirdaryo viloyati | 2 285 | 717 | 295 | 335 | 120 | 64 | 86 | 668 |
| 11 | Toshkent viloyati | 3 409 | 1 634 | 470 | 438 | 120 | 46 | 108 | 593 |
| 12 | Farg'ona viloyati | 5 156 | 1 716 | 689 | 842 | 487 | 211 | 322 | 889 |
| 13 | Xorazm viloyati | 4 388 | 2 229 | 411 | 958 | 125 | 81 | 131 | 453 |
| 14 | Toshkent shahri | 4 495 | 584 | 520 | 332 | 387 | 237 | 189 | 2 246 |




Ovoz berish bosqichida fuqarolar tomonidan 20 milliondan ortiq ovoz qayd etildi. Jumladan, birinchi mavsumda 11 million, ikkinchi mavsumda esa 9 million fuqaro ovoz berishda ishtirok etib, yillik o'rtacha hisobda aholining 28 foizi ushbu jarayonlarda faollik ko'rsatdi.

Ovoz berish bosqichi yakunlariga ko'ra, umumiy qiymati 5,6 trln so'mni tashkil etgan 4 768 ta loyiha g'olib deb topildi. Ushbu loyihalar uchun fuqarolar tomonidan 16 milliondan ortiq ovoz berildi.

Joriy yilda ajratilgan mablag'lar hajmining oshishi hisobiga bir tuman yoki shaharda g'olib loyihalar soni 2023-yilga nisbatan o'rtacha 6–8 tadan 13–15 tagacha oshgani qayd etildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, amaldagi tartibga kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari o'zlariga berilgan vakolatdan foydalangan holda tuman (shahar) budjeti qo'shimcha mablag'lari hisobidan 56 ta loyiha uchun qo'shimcha mablag' ajratib, ularni g'olib sifatida e'lon qildi.

G'olib bo'lgan loyihalarining 1 686 tasi (35 foiz) ichki yo'llarni ta'mirlash, 1 446 tasi (30 foiz) esa maktablarni ta'mirlash va jihozlash loyihalariga to'g'ri keldi (1-rasm).



1-rasm. 2024-yilda g'olib deb topilgan loyihalar sohalar kesimida

Ushbu loyihalar doirasida 3 044 ta, ya'ni mavjud mahallalarning 32 foizida ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslar amalga oshirilishiga erishildi.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi 5072-sonli "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan amaldagi tartib o'zgartirilib, tuman (shahar) budjeti qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizi emas, balki 30 foizini yo'naltirish hamda 2022-yil 1-yanvardan e'tiboran respublikaning barcha tuman (shahar) larida tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirishga erishildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi PQ-409-son "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, joylarda fuqarolarni qiynab kelayotgan dolzarb muammolarni hal etish miqyosini kengaytirish maqsadida 2023-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjeti qo'shimcha mablag'larining 30 foizi hamda tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so'mdan kam bo'lmagan mablag'lar fuqarolar fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Keng jamoatchilik tomonidan "Tashabbusli budjet" jarayonlariga oid savol, shikoyat va takliflarni tezkor qabul qilish hamda fuqarolar bilan axborot almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadida 2022-yildan boshlab "Ochiq budjet" axborot portalida "Onlayn murojaat" bo'limi tashkil etildi. Fuqarolar endilikda shikoyat yoki savollar bilan to'g'ridan-to'g'ri portal orqali murojaat qoldirishi mumkin. Bugungi kunga kelib, fuqarolar tomonidan qariyb 2 mingga yaqin murojaat kelib tushgan.

"Tashabbusli budjet" loyihasi doirasida g'olib deb topilgan takliflarning ijrosini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi. Endilikda ushbu ma'lumotlar asosida har bir hudud, jumladan tuman va shahar kesimida mavsumlar bo'yicha to'liq ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi "interaktiv doska" (dashboard) ishga tushirildi.

Ushbu doskaning afzalligi shundaki, barcha ma'lumotlar interaktiv holatda bo'lib, foydalanuvchi real vaqt rejimida tegishli hudud bo'yicha barcha ko'rsatkichlar bilan tanishish imkoniyatiga ega. Interaktiv doska o'zida quyidagi ma'lumotlarni aks ettiradi:



• Umumiy ma'lumotlar – tegishli mavsum bo'yicha kelib tushgan loyihalar, saralash natijalari, berilgan ovozlar va g'oliblar soni, shuningdek ajratilgan mablag'lar va boshqa ko'rsatkichlar. Ushbu panel orqali foydalanuvchi loyihalarning kelib tushgan hamda g'olib bo'lgan qismlari bilan tanishishi mumkin.

• Loyihalarning joriy holati – hududlar kesimida g'olib deb topilgan loyihalar uchun mablag'larning yo'naltirilishi, moliyalashtirilishi va bajarilgan ishlar hajmi haqida ma'lumotlar.

• G'olib loyihalar ijrosi – tegishli hudud bo'yicha jami g'olib loyihalardan nechta ish boshlanmagan, loyihalashtirish yoki qurilish jarayonida turgan va yakunlanganligi bo'yicha ma'lumotlar.

• Jamoatchilik nazorati – g'olib loyihalar ijrosi bo'yicha tashabbuskor fuqarolar tomonidan amalga oshirilgan ishlarning holatini baholash natijalari.

Jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish maqsadida tashabbuskor fuqarolar tomonidan loyihani amalga oshirishda kuzatilgan holatlar yuzasidan "Favqulodda xabar berish" funksiyasi ishga tushirildi. Fuqarolar tomonidan aniqlangan va xabar berilgan holatlar "interaktiv doska"da xaritada tegishli hududda aks ettiriladi va kamchilik bartaraf etilmaguncha nazoratdan olinmaydi.

Interaktiv doskada aks ettirilgan O'zbekiston Respublikasi xaritasidan istalgan hudud tanlanib, ushbu hududdagi tuman va shaharlar kesimida yuqoridagi ko'rsatkichlar bilan tanishish mumkin. Bundan tashqari, foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida tahliliy maqsadlar uchun barcha ma'lumotlarni hisobot shaklida yuklab olish imkoniyati ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, 'Yashil makon' umummilliy loyahasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-199-son farmoni imzolandi. Unga ko'ra, "Yashil makon" umummilliy loyahasini amalga oshirishda davlat budjetidan har yili ajratiladigan mablag'larning kamida 50 foizi "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari"ni tashkil etish uchun "Ochiq budjet" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan "Mening bog'im" loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Aholi tashabbusi bilan "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari"ni tashkil etish bo'yicha maydon manzili va rasmlari ko'rsatilgan holda, qiymati 250 million so'mdan oshmagan tashabbuslar ilgari surilishi mumkin. "Mening bog'im" loyihalarini shakllantirish va ularga ovoz berish jarayoni 2024-yildan boshlab har yili yanvar-fevral oylarida o'tkaziladi.

"Tashabbusli budjet" jarayonlarini keng jamoatchilikka sifatli taqdim etish va texnik jihatdan barqaror tizimni ta'minlash mazkur jarayonni yanada takomillashtirish, so'nggi yillarda kuzatilgan kamchiliklarning takrorlanishining oldini olish hamda mavjud muammolarni tizimli ravishda hal etishda xorijiy ilg'or tajribani o'rganishni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini chuqur tahlil qilgan holda, keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimiz farovonligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish eng muhim maqsadlardan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda, O'zbekistonda mavjud ijtimoiy muammo va kamchiliklarni hal etishda tashabbuskor fuqarolarning jarayonlarga qiziqishini va ijobiy yondashuvini qo'llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish ustuvor vazifalardan biridir. Zero, har qanday islohotlar zamirida fuqarolik jamiyatining manfaatlari va faolligi yuksak qadrlanishi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022 – 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 апрелдаги "Бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора- тadbirlar тўғрисида"ги ПҚ-5072-сонли Қарори
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 сентябрдаги "“Очиқ бюджет» ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида шаклланган тadbirlarни молиялаштиришни янада кенгайтириш чора-тadbirlari тўғрисида"ги ПҚ-5250-сонли Қарори
4. Файбуллаев О., Уроқов У. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни. Ўқув қўлланма. – Т.: "Бактрия пресс", 2016 й.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги "Iqtisodiy ta'limotlar tarihi" maruzalar matni (А.Исломов, Э. Эгамов) 2009 й.
6. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий веб-сайти (Бюджетнома 2021 йил ҳамда 2022-2023 йиллар бюджет мўлжаллари)
7. Cascais' Participatory Budget: an Inspiring Example, <https://urbact.eu/cascais/> - participatory-budget-inspiring-example



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>